

TURKISTONNING TARIXIY HUDDUDIY CHEGARALARI VA FIKRIY YONDASHUVLAR

A'zamova Mahliyo Panji qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

ИСТОРИЧЕСКИЕ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ГРАНИЦЫ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ТУРКЕСТАНА

Аззамова Махлиё Панжи кизи

*докторант (PhD) Термезского государственного
университета*

HISTORICAL TERRITORIAL BOUNDARIES AND INTELLECTUAL APPROACHES OF TURKESTAN

Azamova Mahliyo Panji qizi

PhD student at Termez State University



E-mail:

azamovamahliyo@gmail.com

[Orcid 0009-0003-5364-](#)

[861X](#)

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Turkiston” atamasining turli davrlarda qanday hududlarni anglatganligi masalasi yoritilib beriladi. Hozirgi kunda Turkiston deganda qaysi hududni tushunishimiz haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Mavarounnahr, Markaziy Osiyo, Bilod at turk, turk.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о том, к каким регионам в разные периоды относился термин «Туркистон». Здесь также говорится о том, какую территорию мы понимаем сегодня.

Ключевые слова: Центральная Азия, Мавераннахр, Средняя Азия, Билад ат Тюрк, Тюрк.

Abstract. This article discusses the question of what territories the term «Turkestan» meant in different periods. It also discusses what territory we understand today.

Keywords: Central Asia, Transoxiana, Central Asia, Bilad at Turk, Turk.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION).

“Turkiston” atamasi mingyillik qadim tarixga ega hisoblanadi. Hozirgacha bizning hudud uchun qo‘llanilib keladigan atama hisoblanadi. Ammo, aniq qaysi vatqdan buyon qo‘llanilganligi hali ham aniqlashtirib olinmagan. Turkiston so‘zining tub ma’nosini kelib chiqishidan boshlab dastlab qo‘llanilishiga e‘tiborimizni qaratamiz. “Turkiston” atamasi Eron tilidan kelgan “i” izofati va “ston” qo‘srimchasi bilan birgalikda “Turklarning yurti(mamlakati, eli, o‘lkasi) ma’nosini beradi. “Turkiston” atamasini to‘g‘ri anglamo-g‘imiz lozim. Bu hudud “Markaziy Osiyo” yoki “O‘rta Osiyo” qismida joylashgan hisoblanadi. Biz hozirgi kunda bu atamalar o‘rniga “Turkiston”

atamasini qo‘llashimiz qanchalik to‘g‘ri. Zeki Velidi Togan “Turk-Turkiston” asarini “Turk” so‘zining forscha “istan” qo‘srimchasi bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan va “Turklar o‘lkasi” ma’nosini ifodalaydi deb keltirib o‘tgan [11].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Turkiston hududining turli davrlarda qanday geografik chegaraga ega ekanligini bilishimiz uchun o‘sha davrlarda yozilgan manbalarga murojaat qilishimiz zarur: Ibn Xurdodbek (820-912) “Yollar va Ulkeler Kitabi”, Hudud al-olam, Firdavsiy (11-yuzyillik) “Shohnoma”, Yoqut al-Hamofiy (1179-1229), Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” (11-

yuzyillik), Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (11-yuzyillik), A.Beruniy “Qonuniy Ma’sudiy”, “Hindiston”, “Saydana” (10-yuzyillik) kabi asarlarda uchratishimiz mumkin. Turkiston hududi haqida izlanish olib borgan olimlarimiz M.Is’hoqov, Sh. Kamoliddin, G’.Boboyorov, Sims Williams, M.Mirkamalov kabilardir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /DISCUSSION). Bu atamani qo’llashda turli xil qarashlar mavjud: Bir tomondan, arablar kelishidan birmuncha oldin Sirdaryoning kunchiqaridan turkiy ellatlar yashaydigan o’lkalar arab va forslar tomonidan birqalikda Turkiston deb atashgan. Amudaryo—Sirdaryo oralig‘i uchun 6-8-yuzyilliklarda Turkiston atamasini ishlatish mumkin emas. Bu atama 8-9-yuzyilliklarda Sirdaryoning shimoli va kunchiqaridagi o’lkalarga, ko’proq yettisuv uchun qo’llanilgan. Ikki daryo oralig‘i esa Turkiston deb atalmagan, balki Movarounnahr deb atalgan. Movarounnahr Turkistonga kirmagan. Turkiston deganda Sirdaryoning quyi oqimlari, ko’pincha bugungi Turkiston shahri atroflari tushunilgan. Faqat 19-yuzyillikning 2-yarmida ruslar O’rta Osiyoni bosib olgach, Turkiston nomi ular tomonidan Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ini ham anglata boshlagan. Bizni tadqiqotlarimiz shuni ko’rsatadiki, Turkiston atamasining boshqa atamalar bilan sinonim tarzda qo’llanishi ham kuzatilgan. Bu nom eron va arman adabiyotida 6-yuzyillikdan beri Sharq xalqlari orasida qo’llanilgan. Masalan: Sosoniylar sulolasiga mansub bo’lgan Eron shahonshohlarining 3 yuzyillikdagi bitiklarida geografik nomlar sifatida “Turon” bilan bir qatorda “Turiston” nomi “Turon” bilan bir xil ma’noda - “turlar mamlakati” ma’nosida zikr etilgan [14].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). “Turkiston” atamasini M.Is’hoqov tomonidan tarjima qilingan 7-yuzyillikga tegishli (aniqrog‘i 639-yil) Sharqiy Turkistondan (Turfon) topilgan sug’d tilida bitilgan hujjatda Turkiston atamasi uchraydi. Hujjatda yozilishicha Upachahning turkiy va sug‘diy yurti - Turk xoqonligi tasarrufidagi hudud -Turkistondan ekanligi alohida ta’kidlangan [5].

7-yuzyillikda yozilgan yana bir arman tarixchisi Sebiosning asarida ham ma’lumot uchraydi. Turkistonning boshlanish joyini Vehrot (Amudaryo) daryosi deb keltirib o’tgan. Sebeosning ma’lumotlaridan Vaxsh-Panj-Yuqori

Amudaryo havzalarining Turkiston o’lkasiga kirganligi ma’lum bo’ladi [15]. Yana bir arman tarixchisi, 7-yuzyillikda yashagan Ananiya Shirakasiyaning “Ashxarasuyi” (Mamlakatlar tasviri) asarida: “Sug‘diylar — Ariya (Shimoliy-sharqi Eron) va Turkiston oralig‘ida yashaydi” shaklida ma’lumotga duch kelinadi [15].

8-yuzyillikga tegishli sug‘diy tilli bir hujjatda 13-15-qatorlarida “Turkiston” atamasi twrkystn ko’rinishlarida yozilgani diqqatni tortdi [1]. Turkiston hududiga shimoli-sharqdagi yerlar, ayniqsa, Sirdaryodan Mo‘g‘ilistongacha cho‘zilgan o’lkalar uchun qo’llanilgan [10] deb aytib o’tgan. Bilamizki, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘iga nisbatan Movarounnahr atamasini qo’llash arablar istilosidan so‘ng 8-yuzyillikda paydo bo‘lgan deb ko‘p adabiyotlarda duch kelamiz. O’rta yuzyillik arab, fors, turkiy manbalarida esa Turkiston atamasi ko’proq Sirdaryoning quyi havzasidagi hududlarga, Sirdaryoning shimoliy-sharqi, Yettisuv, Farg‘ona vodiysi va Sharqiy Turkistonga nisbatan qo’llanilgan.

7-yuzyillik arman manbalarida Amudaryoning yuqori oqimi Turkiston deb tushunilgan bo’lsa. Paxlaviy-fors manbalarida esa Shimoliy Afg‘oniston va Amudaryo havzalari Turkistonga kiritilgan. Boshqa manbalarda esa masalan: Sug‘diy hujjatlarda ham ikki daryo oralig‘i Turkiston ko’rsatilgan. Albatta bu ma’lumotlar keng qamrovli bo’lmay, ularda Turkiston iborasi biror voqeа tavsilotlar hikoya qilinayotgan vaqtida qayd qilingan. Ammo bir “Turkiston” hududining o’zi ikki hudud qilib ko’rsatilayotganini ko’rishimiz mumkin. “Turkiston” 8-yuzyillik boshida islomga o’tilgandan keyin arablar “Turkiston” o’rniga “Bilod al-Turk” atamasini qo’llaganlar, bu ham “Turklar yurti”, “Turkiston” degan ma’noni bildirgan [8]. Arab geografi Ibn Xurdodbeh (mil.847 yilda) “Turkiston” so‘zining ekvevalinti sifatida “Bilad el Turk” so‘zini ishlatadi. Bu muallif “Bilad el Turk” nomi bilan tanilgan [11]. 9-10-yuzyillik manbalaridan biri Mahmud Qashg‘ariy “Devoni lug‘ati turk” nomli asarida “Bilod al-Turk”ning hududlarini Chindan Hazar dengiziga, Qipchoq, Rossiyaga qadar davom etgan yerlardan iborat deb ko’rsatgan (haqiqiy Bilod at turk Farg‘onaning shimoli-sharqidagi “O’zkent”-dan boshlanadi. Uning markazlari Qashg‘ar, Issiqlik, Chu qabilalari hisoblanadi) [8]. Mahmud

Qashg'ariy “Bilad el-Turk”ning kengligi taxminan besh ming liga ekanligini qayd etadi [11]. 11 yuzyillik geografi Sharif Idrisiy ham Olttoy, Irtish va Itil daryolari bo‘yidagi joylarni “Bilod el-Turk” deb atagan[11]. 10-yuzyillikga oid muallifi noma'lum bo‘lgan, muhim toponimik manbalardan biri “Hudud al-olam”da Movarounnahr hududlari va Turkiston hududlari alohida qilib tasvirlanadi. Ushbu hozirgi Janubiy Qozog‘iston, Qirgizistondan to Qoshg‘argacha bo‘lgan joylar “Hudud al-olam”da “Bilod at-turk”, ya’ni “Turklar o‘lkasi”, “Turkiston” nomi bilan atalgan. Movarounnahr hududi esa sharqda - Tibet hududiga tutash, janubi-Xuroson, g‘arbi-Sirdaryoning quyi oqimi, Farg‘ona va Oloy tizmalari bilan chegaradosh qilib tasvirlangan [4] deb qayd etilgan[7].

9-yuzyillikda arab sayyohi Yoqubiy o‘zining “Kitob al-buldon” asarida (891-yilda) Turkiston so‘zini bevosita ishlatadi. Turkiston nomi ostida Idil (bugungi Volga) daryosidan Tangri tog‘lari ning sharq tomonigacha bo‘lgan yerlarni tushungan. Siyston atrofi “Turkiston”, shuningdek, hozirgi Zarafshon daryosining yuqori oqimi Pomir va Qora Tigin va Dushanbe taraflari Turkiston [13] deb ta’kidlagan. 11-yuzyillikga oid Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” yozma manbasining kirish qismida Turkiston nomini eslab o‘tgani [6]. Bu davrda Qoraxoniylar saltanatining eng yuksakka ko‘tarilgan davri edi. Bu davlatning vujudga kelishi bilan “Turkiston” toponimining ma’nosini yana avvalgi chegaralariga deyarli tiklandi. Janubiy chegaralari esa Amudaryoga qaytadi. O‘sha davrda Sug‘d va Xorazmni o‘z ichiga olgan “Movarounnahr” nomiga kelsak [2] endi u Turkistonning bir qismi sifatida qarala boshlandi[9].

13-yuzyillikda arab geografi Shamsiddin al-Dimishkiy Turkiston va Turkiston shaharlari orasini Sirdaryo daryosi ajratib turuvchi daryo haqida eslatib o‘tadi. Ular Sirdaryoni turk va islom davlatlarini ajratib turuvchi daryo deb ta’riflaganlar[11]. Shamsiddin Dimishkiy Farg‘onani ham Qoshg‘ar bilan birga Turkiston tarkibiga kiritgan[3]. Arab geograf olimi al-Muqaddasiy (10 yuzyillik)ning asarida Turon va Turkiston mintaqasini “al-Haytal” deb ataganligi, arablar bu nomni Eftaliylarga nisbatan ishlatganlar. Al-Haytal islom dinini qabul qilgan turklarning hududiga nisbatan (Beruniy asarida). “Bilod-al turk” islom dinini qabul qilmagan turklar yeriga nisbatan ishlatilgan (Mahmud Qashg‘ariy).

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Turkiston” bu faqatgina bir davlat yoki aniq chegaralangan yer emas, balki ko‘p yuzyilliklar davomida turkiy xalqlar yashagan, ularning madaniyati, savdosi va siyosiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan keng tarixiy-madaniy hududdir. Bugungi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Xitoyning g‘arbiy qismi (Shinjon) qadimiy Turkistonning ajralmas bo‘laklaridir. Turkiston atamasi, turkiylar yashagan hudud degan ma’noni bildirganligi sababli, o‘z chegarasida barcha xalqlarni qamrab olgan umumiyligi nom sifatida ishlatilgan. “Turk” so‘zining barcha turlarini o‘z ichiga olgan “Ulug‘ Turkiston” deyishga to‘liq asoslar mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. A’zamova, M. Turkiston atamasining tarixdagi ba’zi manbalarda qo’llanishi // Imom Buxoriy saboqlari. – 2024. – № 4. – B. 35–39.
2. Beruniy. (1957). Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: Fan nashriyoti. – B. 60.
3. Dimashqiy. Nuxbat al-dahr. – 94 b.
4. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Fors tilidan O. Bo‘riyev tarjimasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008. – B. 11–23.
5. Is’hoqov, M. Nomi azal – Turkiston//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi.1993.№ 45–46.–B.1–5
6. Kutadgu Bilig incelemesi. – Ankara: [Nashriyot], 1995. – B. 15.
7. Mirakmalov M. “Turon, Movarounnahr, O‘rta Osiyo va Turkiston nomlarining yozma manbalarda yoritilishi” maqolasi // O. Bo‘riyev 80 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 103.
8. Qashg‘ariy, M. Turkiy so‘zlar devoni (Devoni lug‘ati turk). – Toshkent: Fan, 1963. – B. 463.
9. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1963. – B. 164.
10. Sims-Williams,N.ADictionary:Christian Sogdian, Syriac and English.2016.–B.262–266.
11. Togan,Z.V.Turk-Turkiston.Istanbul:1960.–B.12-14
12. Ya’qubiy. Kitob al-Buldan. – Toshkent: Fan, – B. 295.
13. Камолиддин, Ш. К вопросу об употреблении географических названий «Мавераннахр» и «Туркестан» О‘zbekiston tarixi.2002.№4.Б.61–68.
14. Тер-Мкртчицки, Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V-VII вв.Москва, 1979. – Б.51–61.